



## MEHNAT TARBIYASI

**Rayimov Jonibek To'lagan o'g'li**

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi :

10 jm 23 grux

[Rayimovjonibek77@gmail.com](mailto:Rayimovjonibek77@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA:**

Mehnat tarbiyasi - bu yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlash, ishga bo'lgan munosabatlarini rivojlantirish va mehnat madaniyatini o'rgatish jarayoni. Ushbu maqolada mehnat tarbiyasining muhimligi, ta'lim jarayonida uning o'rni, mehnat tarbiyasi usullari va uslubiy yondashuvlar taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** Mehnat tarbiyasi, Ta'lim jarayoni, Mehnat madaniyati, Yosh avlod, Malakaviy ko'nikmalar

### **АБСТРАКТНЫЙ:**

Трудовое воспитание – это процесс подготовки молодого поколения к труду, формирования у него отношения к труду и обучения культуре труда. В данной статье представлены значение трудового воспитания, его место в образовательном процессе, методы трудового воспитания и методические подходы.

**Ключевые слова:** Трудовое воспитание, Образовательный процесс, Культура труда, Молодое поколение, Квалификационные навыки

### **ABSTRACT:**

Labor education is the process of preparing the young generation for work, developing their attitude to work and teaching work culture. This article presents the importance of labor education, its place in the educational process, labor education methods and methodological approaches.

**Key words:** Labor education, Educational process, Labor culture, Young generation, Qualification skills

### **Kirish**





Mehnat tarbiyasi, faoliyat ko'rsatishi va yangicha fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodning mehnatga bo'lgan yondashuvi va bunga tayyorgarligi, kelajakda ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, mehnat tarbiyasi orqali o'quvchilarga ishga nisbatan mas'uliyat hissi, intizom va qat'iyatlik kabi sifatlar o'rgatiladi. Ushbu maqolada mehnat tarbiyasining asosiy tamoyillari, amaliy usullari va ta'lim olish jarayonidagi o'rni batafsil bayon qilinadi.

Yosh avlodning mehnat tarbiyasi masalalari, bundan tashqari, o'quv yurtlarida va oilada muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga mehnatni qadrlash, ijodkorlik va jangovar ruhni rivojlantirish orqali, kelajakda samarali dasturlar va loyiha yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun, mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etiladi. Mehnat ta'limi sinf honalari, o'quv-tajriba maydoni, mashina-traktor saroyi, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korhonalari va ho'jaliklarning dalalarda olib boriladi. Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta'limi bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishni talab etadi. Zero, bilim va ko'nikmalar o'quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar, Umumiy mehnat jarayonida o'quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer ho'jaliklari, korhona, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladi. Sinfidan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfidan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari o'quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning to'garaklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. CHunonchi:

- to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;
- texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy alohada bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);
- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.





Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o'z-o'ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro'zg'or texnikalarini ta'mirlash bilan shug'ullanadilar. Oila byudjeti va uni yuritish bilan bog'liq topshiriqlarni bajaradilar, Oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz. Iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning uzluksizligi va uzviyligi.

Iqtisodiy bilimlar avvalo oila muhitida, so'ng ta'lim turlari jarayonida shakllantirilib boriladi. Bu ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirilishi, malakaga ega bo'lish orqali mustahkamlanib boriladi. Iqtisodiy savodxonlik insonni iqtisodiy jihatdan voqea-xodisalarni tahlil qilish, unga baxo berish va qaror qabul qilish, shaxsni o'z turmush tarzini erkin tanlashi va tanlov oqibatini ko'z o'ngiga keltira olishini tushunamiz.

Iqtisodiy savodxonlik masalasi insonning dunyoqarashi va tajribalari bilan bog'liq holda rivojlanadi. Iqtisodiy savodxonlikni oshirishning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud: ob'ektiv-shaxsning o'ziga bog'liq bo'lmagan va jamiyatda tarkib topgan iqtisodiy ijtimoiy munosabatlar va institutlarga bog'liq. Sub'ektiv yo'llari esa- har bir shaxsning o'ziga va jamiyatdagi mavjud imkoniyatlardan foydalana olish qobiliyatiga bog'liq.

Oila boladagi tejamkorlikni, mehnatsevarlikni va iqtisodiy fikrlashni shakllantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Oila byudjeti-bu oilaning daromadlari, xarajatlarining balansidir. Oila byudjeti ikki qismga ajratiladi: daromadlar va xarajatlar. Oilada jamg'arma fond yoki rezerv bo'lishi maqbul variant. Jamg'armalar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

1. Naqd pul shaklida
2. Qimmatbaho mulk, antikvariat shaklida
3. Kapital aylantirish shaklida

Oiladagi daromadlar va ularni sarflash, taqsimlash va ishlatishda ota-onalar iqtisodiy bilimga va tajribaga ega bo'lishlari zarur. Shundagina farzandlar iqtisodiy jixatdan etarli malakalarga, tajribalarga ega bo'lib boradilar.

Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, institutizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham Mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan.





Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, „mehnat ta'limi“, „kasbga yo'naltirish“, „politexnik ta'lim“, „kasb ta'limi“ singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilo-hiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnat tarbiyasi ga katta e'tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'zda tutilmagan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini angelay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go'daklik bosqichiga o'tishlari bilanoq, ularga dastlabki Mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemtik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin.

Bolalarga Mehnat tarbiyasi berishda bog'cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o'rin tutadi. Chunki bu muassasalarda Mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, akliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil Mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og'ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va institutizom bo'lishiga qat'iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha Mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o'qish jarayonining o'zi og'ir akdiyjismoniy mehnatdir. Maktabga o'z vaqtida kelib-ketish, o'qish-yozishni o'rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o'quvchilarga Mehnat tarbiyasi berilgan bo'lishi kerak. Chunki o'quv topshiriqlarini bajarish, dars o'zlashtirish, o'tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko'chirmalar olish, lu-g'atlar bilan ishlay olishi uchun o'quvchi muayyan institutizomga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo'lishi, ishning ko'zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlarining ham o'rni katta. Chunki bu jarayonlarda o'quvchilar bevosita tegishli mehnat ko'nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo'llash bosqichini o'taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo'nalishi o'ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. Shuning uchun ham mehnat ta'limi imkon qadar xilma-xil bo'lishi hamda o'quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlariga muvofiq kelishi zarur.





O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997-yil 29-avgust)ga muvofiq, o'rta maxsus ta'lim bosqichining majburiy bo'lganligi o'zbek o'quvchilariga Mehnat tarbiyasi berishda alo-hida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu bosqich to'liq kasbga yo'naltirilgan bo'lib, kasbhunar kollejlari o'quvchilari bevosita o'zlari tanlagan kasblarga doir ko'nikma va malakalar shakllantirsalar, akademik litsey o'quvchilari kelajakda egallaydigan kasblarning nazariy asoslarini o'zlashtiradilar. Oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida Mehnat tarbiyasi bevosita kasb ta'limi bilan qo'shib amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi berishda o'quvchilarning bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarning o'quv rejasida ko'zda tutilgan, mehnat amaliyotini o'tashlarini to'g'ri tashkil etish, ularni bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari qoshidagi to'garaklarga ko'proq jalb qilish yosh avlodning komil shaxslar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanuvchi adabiyotlar:

1. Karimov, I.A. (2015). "O'zbekiston Respublikasi yoshlarining mehnat tarbiyasi masalalari".
2. Bayramov, A. (2020). "Mehnat tarbiyasi - jamiyat taraqqiyotining asosiy omili".
3. Turg'unov, R. (2018). "Ta'lim tizimida mehnat tarbiyasini qo'llash metodlari".
4. Yusupov, M. (2019). "Yoshlarning mehnat madaniyati va uning oshirish usullari".
5. Abdullaeva, N. (2021). "Ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasining o'rni".
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mehnat\\_tarbiyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mehnat_tarbiyasi)
7. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/o-quvchilarning-mehnat-tarbiyasi-o-quvchilarning-iqtisodiy-tarbiyasi>

